BUYUK SALJUQIYLAR DAVLATIDA IQTO TIZIMI VA UNING IJTIMOIY-SIYOSIY BARQARORLIKDAGI O'RNI

Muallif: **Xidirova Dilnoza Narbayevna**
Samarqand shahar 12-maktab tarix fani o'qituvchisi
dilnozanarbayenva22@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.22943248

Annotatsiya: Ushbu tezisda Buyuk Saljuqiylar davlatida amal qilgan harbiy-ma'muriy iqto tizimining mohiyati, uning Nizamulmulk islohotlari doirasida markaziy hokimiyat tayanchiga aylanishi hamda keyinchalik feodal tarqoqlikni yuzaga keltirgan ichki ziddiyatlari yoritiladi. Manbalar va tarixiy ma'lumotlar asosida iqtoning davlat yaxlitligini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Buyuk Saljuqiylar, iqto tizimi, Nizamulmulk, "Siyosatnoma", harbiy tuzilma, markaziy boshqaruv, atabeyliklar.

Dolzarbligi.Saljuqiylar davlatida iqto tizimining o'rganilishi sharqona davlatchilik tizimi, harbiy-ma'muriy boshqaruv va yer-suv munosabatlarining rivojlanishini tushunishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.Bugungi kunda Markaziy Osiyo va yaqin Sharq o'rta asrlar ijtimoiy-iqtisodiy tarixini tahlil qilishda iqto tizimi shunchaki yer ijarasi emas,balki markazlashgan imperiyani ushlab turuvchi geosiyosiy va harbiy barqarorlik omili sifatida tavsiflash mumkin.

Natijalar va tahlil. O'rta asrlar Sharq davlatchiligida yerga egalik qilish va soliq tushumlarini taqsimlash tizimi har qanday markazlashgan tuzilmaning barqarorligini belgilovchi asosiy omil sanalgan. XI asrda Islom dunyosida qudratli imperiya barpo etgan Buyuk Saljuqiylar davlati oldida ulkan hududlarni ma'muriy jihatdan birlashtirish, o'g'uz harbiy elitasini o'troq an'analar bilan uyg'unlashtirish hamda yirik otliq armiyani davlat xazinasiga og'irlik tushirmay ta'minlashdek dolzarb vazifa turar edi. Bu muammolarni tizimli hal etish maqsadida mashhur vazir Nizamulmulk tashabbusi bilan klassik harbiy iqto amaliyoti tubdan isloh qilindi va davlat siyosatining o'zagiga aylantirildi. Mazkur tezisda iqto tizimining Saljuqiylar siyosiy-ijtimoiy barqarorligidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi.

Tadqiqotda tarixiy-mantiqiy tahlil, qiyosiy-tarixiy va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Xulosalar Nizamulmulkning "Siyosatnoma" ("Siyar al-muluk") asari, Ibn al-Asirning solnomalari hamda Saljuqiylar davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlariga oid ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslanadi.

Saljuqiylar iqto tizimining o'ziga xosligi shundaki, u Abbosiylar xalifaligidagi soliq ijarasidan farqli ravishda qat'iy harbiy va ma'muriy xarakter kasb etdi. Keng imperiya hududida askarlarga doimiy naqd pul ko'rinishida oylik (at'o) to'lash imkonsiz bo'lgan sharoitda, yerlardan tushadigan soliq yig'ish huquqi amirlar va lashkarboshilarga taqsimlab berildi. Biroq ushbu tartib iqtodorga yerning xususiy mulkdori bo'lish huquqini bermas, balki faqat qonuniy belgilangan xirojni undirish va uning evaziga to'liq qurollangan muayyan miqdordagi otliq qo'shin (sipoh)ni saqlash majburiyatini yuklar edi. Harbiy harakatlar boshlanganda iqtodorlar o'z qo'shini bilan sulton lashkariga qo'shilishi shart bo'lgan. Bu xususiyat sulton xazinasini ortiqcha xarajatlardan xalos etib, imperiyaga istalgan paytda yuz ming kishilik muntazam harbiy kuch to'plash imkonini berardi.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Iqtoning davlat tayanchiga aylanishi bevosita Nizamulmulk tomonidan yo'lga qo'yilgan qat'iy nazorat tizimiga aylandi. "Siyosatnoma"da vazir iqtodorlarning mahalliy aholi ustidan mutlaq xo'jayin emasligini, ularning vakolati faqat me'yoridagi soliqni undirish bilan cheklanishini alohida ta'kidlaydi. Iqtodorlarning markazdan ajralib chiqishining oldini olish uchun yerlar har 2-3 yilda almashtirilib (rotatsiya), viloyatlarga doimiy ravishda maxfiy xabarchilar (barid) va soliq nazoratchilari tayinlandi. Aynan mana shu davlat nazorati Alp Arslon va Malikshoh davrida markaziy hokimiyatning mustahkamligini, dehqonchilik xo'jaliklarining himoyasini va imperiya hududiy daxlsizligini ta'minlagan.

Biroq tizim o'zining ichki ziddiyatlariga ega edi. Malikshoh va Nizamulmulk vafotidan so'ng (1092-yil) boshlangan ichki taxt kurashlari oqibatida markaziy nazorat mexanizmi ishdan chiqdi. Nazoratsiz qolgan iqtodorlar yerlarni o'zlarining xususiy va merosiy mulkiga aylantira boshladilar. Viloyatlardagi amirlar va shahzodalarning murabbiylari bo'lgan atabeylar mustaqillikka intilib, markazga soliq to'lashdan va qo'shin yuborishdan bosh tortdi. Oqibatda iqtodorlarning xalqqa zulmi oshib, qishloq xo'jaligi zaiflashdi, yirik iqtolarga tayangan viloyat hukmdorlari esa mustaqil sulolalarga (masalan, Zangiylar, Eldegiziylar) aylanib, markazlashgan davlatning mayda qismlarga bo'linib ketishiga sabab bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, Buyuk Saljuqiylar davlatida iqto tizimi o'z davrining eng ilg'or ijtimoiy-harbiy mexanizmi bo'lib, markaziy nazorat kuchli bo'lgan pallasida imperiyaning siyosiy barqarorligi va qudratini kafolatladi. Ammo bu tizim to'liq markaziy irodaga bog'liq bo'lgani sababli, boshqaruv zaiflashishi bilan davlatni birlashtiruvchi omildan feodal tarqoqlik va sulolaviy inqirozni kuchaytiruvchi bosh mexanizmga aylandi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Nizamulmulk. Siyosatnoma. - Toshkent: Adolat, 1997. - 240 b.
2. Lambton, Ann K. S. Continuity and Change in Medieval Persia. -New York: Bibliotheca Persica, 1988. -425 p.
3. Cahen, Claude. L'évolution de l'iqta' du IXe au XIIIe siècle.-Annales, 1953.
4. Zaporojets, V. M. Seldjuki. -Moskva: Voenizdat, 2011. -294 s.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.